FARG’ONA VILOYATI FARG’ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 7 - oktabr 438-11-169-Q/22 Farg‘ona shahar hokimligi

Yo‘l belgisi o‘rnatish haqida

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil yetish qoidalari” hamda 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 04 aprel kungi “2022 yilda Farg‘ona viloyatida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash haqida”gi 25/1-386-sonli yo‘l xaritasining 6-bandi ijrosini ta’minlash va Farg‘ona shahrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, yo‘l-transport hodisalarini hamda shahar ichki yo‘l qoplamalarining buzilishini oldini olish bo‘yicha Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2022-yil 25-iyun kungi 33/428-sonli xati hamda Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2022-yil 30-iyun kungi 33/438-sonli xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan ,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 04 aprel kungi “2022 yilda Farg‘ona viloyatida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash haqida”gi 25/1-386-sonli yo‘l xaritasi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2022-yil 25-iyun kungi 33/428-sonli xati hamda Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2022-yil 30-iyun kungi 33/438-sonli xulosasi asos uchun

qabul qilinsin.

3. Farg‘ona shahrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, yo‘l-transport hodisalarini hamda ichki yo‘l qoplamalarining buzilishini oldini olish maqsadida:

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda A.Navoiy ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda Oybek ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda Qashqar ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda Yuksalish ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda A.Yassaviy ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda Quva ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda M.G‘olib ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda Sanoat ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda Al-Farg‘oniy ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda Bobur ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda B.Marg‘iloniy ko‘chasi kesishgan chorraxasidan;

- I.Karimov kichik halqa yo‘li hamda S.Temur ko‘chasi kesishgan chorrahalardan shahar markaziga harakatlanuvchi ko‘chalarga 3.4 "yuk avtomobillarining harakatlanishi ta’qiqlangan" yo‘l belgisi o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

4. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish

boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dehqonov) Farg‘ona shahar ko‘chalarida yo‘l belgisi o‘rnatilishini tashkil etish hamda mazkur hududlarda yuk avtomobillari harakat cheklanishini nazorat qilib borish vazifasi yuklansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari M.Ahmadjon zimmasiga yuklansin.

Farg'ona shahar hokimi **V.Nazarov**